

Осознанное потребление не предполагает полного отказа от современных технологий, а скорее стремится найти баланс между экологической устойчивостью и личными потребностями. [6, с. 309] Поиск баланса между затратами времени на реализацию данной модели поведения и выгодами и эффектами определяет, в конечном итоге, оптимальные потребительские решения.

Современному обществу необходимо развивать и укреплять модель осознанного потребления, которая будет ориентирована, с одной стороны, на снижение экологического ущерба и отрицательного воздействия на окружающую среду и на самоограничение в процессе потребления, с другой стороны. Изменение потребительских привычек в соответствии с принципами ответственного потребления будет способствовать более устойчивому развитию общества.

Список литературы

1. Цели в области устойчивого развития // Электронный ресурс. Режим доступа: <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/> Дата обращения: 05.11.2025г.
2. Руководство по спасению мира для лентяев // Электронный ресурс. Режим доступа: <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/takeaction/> Дата обращения: 05.11.2025г.
3. Маланина В.А., Клемашева Е.И., Рождественская Е.М., Кашапова Э.Р. Анализ предметного поля феномена осознанного потребления // Журнал институциональных исследований. 2025. Т. 17. № 1. С. 80-92.
4. Старостина Н.А., Зиновьев А.М. Осознанное потребление: причины, цели, проблемы // Управленческий учет. 2023. № 12-2. С. 797-802.
5. Старостина Н.А., Зиновьев А.М. Экономические аспекты осознанного потребления: потребительский сектор и промышленность // Управленческий учет. 2024. № 3. С. 432-438.
6. Никоноров С.М., Тяглов С.Г., Чернеева В.Я. Концепция осознанного потребления // Экономика и социум: современные модели развития. 2024. Т. 14. № 3. С. 307-315.

ILMIY MUZEYLARNING TARIXIY ILDIZLARI (XVIII–XIX asrlar)

Fazilova Dilrabo Xudaykulovna

Jizzax shahridagi QFU filiali “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
DKFazilova@kpfu.ru

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada XVIII–XIX asrlarda ilmiy muzeylarning shakllanish jarayoni, ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanishdagi o‘rni, ma’rifatchilik davri ta’siri, ilmiy jamiyatlar va ekspeditsiyalarning muzeychunoslik taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalaniladi. Maqolada ilmiy muzeylarning shakllanishi bevosita ilm-fanning jamiyatda ortib borayotgan ahamiyati, ilmiy merosni saqlash zaruriyati va ta’lim tizimining rivoji bilan chambarchas bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy muzeylar, XVIII–XIX asr, ma’rifatchilik, ilmiy jamiyatlar, tabiiy tarix, muzey kolleksiyalari, ilmiy ekspeditsiya, muzeyshunoslik.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ НАУЧНЫХ МУЗЕЕВ (XVIII–XIX вв.)

Фазилова Дилрабо Худайкуловна

Старший преподаватель кафедры «Общественные науки» филиала КФУ в г. Джизаке
DKFazilova@kpfu.ru

Аннотация: В данной научной статье рассматривается процесс формирования научных музеев в XVIII–XIX веках, их роль в социокультурном развитии, а также влияние эпохи просвещения, научных обществ и экспедиций на развитие музееведения. В ходе исследования были использованы исторические источники и методы сравнительного анализа. В результате было установлено, что формирование научных музеев было обусловлено возрастающим значением науки в обществе, потребностью в сохранении научного наследия и развитием системы образования.

Ключевые слова: научные музеи, XVIII–XIX века, Просвещение, научные общества, естествознание, музейные коллекции, научная экспедиция, музееведение.

HISTORICAL ROOTS OF SCIENTIFIC MUSEUMS (XVIII–XIX centuries)

Fazilova Dilrabo Khudaykulovna

Senior Lecturer at the Department of Social Sciences of the KFU branch in Jizzakh

DKFazilova@kpfu.ru

Abstract: This scientific article examines the process of formation of scientific museums in the XVIII–XIX centuries, their role in socio-cultural development, as well as the influence of the Enlightenment, scientific societies and expeditions on the development of museology. In the course of the research, historical sources and comparative analysis methods were used. As a result, it was found that the formation of scientific museums was due to the increasing importance of science in society, the need to preserve scientific heritage and the development of the education system.

Keywords: scientific museums, XVIII–XIX centuries, Enlightenment, scientific societies, natural history, museum collections, scientific expedition, museology.

Kirish. Ilmiy muzeylarning shakllanishi XVIII–XIX asrlarda boshlangan bo'lsa-da, ularning ildizlari insoniyatning qadimiy bilim to'plash an'analari borib taqaladi. Biroq aynan mazkur davrda muzeylar ilmiy-pedagogik, ma'rifiy va ijtimoiy institut sifatida shakllanib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan markazlarga aylandi. Bu jarayonning asosida Ma'rifatchilik g'oyalarining keng tarqalishi, fan va texnikaning keskin rivojlanishi, global ekspeditsiyalar kengayishi va kolleksionerlik madaniyatining ommalashuvi turadi.

XVIII asr oxiri va XIX asr davomida Yevropaning ko'plab davlatlarida tabiiy tarix, geologiya, anatomiya va texnologiya yo'nalishidagi ilmiy to'plamlar tizimlashtirilgan holda jamoatchilikka ochila boshladi. Bu nafaqat ilm-fanning rivojiga, balki xalqning ilmiy savodxonligi oshishiga ham xizmat qilgan. Shuningdek, muzeylar davlatlarning xalqaro nufuzini oshirish vositasiga ham aylangan.

Ilmiy muzeylar zamonaviy jamiyatning ilm-fan, ta'lim va madaniyat sohalaridagi eng muhim institutlaridan biridir. Ular nafaqat ilmiy yutuqlarni ommaga yetkazadi, balki tarixiy merosni saqlash, tadqiq qilish va yosh avlodga yetkazishda ham muhim rol o'ynaydi. Biroq, ilmiy muzeylarning bugungi rivoj darajasi XVIII–XIX asrlarda shakllangan mustahkam tarixiy ildizlarga tayanadi. Mazkur davr ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy ehtiyojlarning ortishi, yangi texnologiyalar paydo bo'lishi va madaniy yuksalish bilan ajralib turadi.

Metodlar. Mazkur ilmiy tadqiqot bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlarga asoslanib kengaytirilgan holda olib borildi. Tadqiqot ishida tarixiy tahlil metodi (XVIII–XIX asrlarga oid tarixiy hujjatlar, ilmiy manbalar, muzey kataloglari va arxiv ma'lumotlari o'rganildi va muzeylarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tahlil qilindi), qiyosiy tahlil metodi (dunyoning turli mamlakatlarida - Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya va AQShda tashkil etilgan ilk ilmiy muzeylarning o'zaro farqlari va o'xshash jihatlari solishtirildi), ilmiy-nazariy umumlashtirish metodi (muzeyshunoslik nazariyalari asosida XVIII–XIX asrlardagi muzeylarning ilmiy-ma'rifiy vazifalari, jamiyatdagi roli umumlashtirildi va nazariy asos yaratildi), manbashunoslik metod (asarlar, sayohatnomalar, olimlar yozuvlari, dastlabki muzey kataloglari va kolleksiyalar tahlili orqali ilmiy muzeylarning shakllanish jarayoni yoritildi)laridan unumli foydalanildi.

Natijalar. Ilmiy muzey tushunchasi muzeyshunoslik, pedagogika va ilm-fan tarixi bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularning ta'riflari ilmiy muzeylarning maqsad va vazifalarini turli yondashuvlarda yoritadi.

Xalqaro Muzeylar Kengashi (ICOM, 2022) ilmiy muzeylarni *“ilm-fan va texnologiyaga oid moddiy hamda nomoddiy merosni to'plash, saqlash, tadqiq etish va jamoatchilikka taqdim etishga yo'naltirilgan notijorat institut”* sifatida belgilab beradi. Ushbu ta'rif ilmiy muzeylarning ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy vazifalarini kompleks tarzda yoritadi.

Lewis (1994) ilmiy muzeylar faoliyatining ta'limiy jihatiga urg'u berib, ularni *“ilm-fan yutuqlari, tabiiy jarayonlar va texnologik taraqqiyotni keng jamoatchilikka tushunarli va vizual shaklda yetkazuvchi ta'limiy makon”* sifatida ta'riflaydi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, ilmiy muzeylarda namoyish etiladigan eksponatlar faqat ko'rgazma obyektlari emas, ular ilmiy tushunchalarni keng ommaga yetkazishning vositasi hamdir.

Weil (1999) ilmiy muzeylarning ijtimoiy xususiyatini ta'riflab, ularni *“ilmiy bilimlarni ommalashtiruvchi va tashrif buyuruvchilarga tajribaviy o'rganish imkonini beruvchi ta'limiy muassasa”*

sifatida tavsiflaydi. Uning yondashuvi ilmiy muzeylarning yosh avlodda ilm-fanga bo'lgan qiziqishni oshirishdagi o'rniga urg'u beradi.

Hein (1998) konstruktivistik pedagogika nuqtayi nazaridan ilmiy muzeylarni *“tashrifchi o'z bilimini faol tajriba va kuzatuv orqali shakllantiradigan interaktiv ta'lim makoni”* deb izohlaydi. Bu ta'rif ilmiy muzeylarning zamonaviy interaktiv ta'lim tizimlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Hooper-Greenhill (1992) ilmiy muzeylarni epistemologik jihatdan *“bilim ishlab chiqaruvchi va uni talqin etuvchi institut”* sifatida talqin qilib, ularning nafaqat eksponat saqlovchi, balki ilmiy g'oyalarni talqin qiluvchi va sharhlovchi muassasa ekanligini ta'kidlaydi.

Cameron (2010) ilmiy muzeylarning ijtimoiy kommunikatsiyadagi rolini tahlil qilib, ularni *“ilm-fan, texnologiya va jamiyat o'rtasida o'zaro aloqadorlikni ta'minlovchi kommunikativ ko'pri”* sifatida tavsiflaydi.

Durbin (1986) esa ilmiy muzeylarning tarixiy jihatiga e'tibor qaratib, ularni *“texnika va tabiiy fanlarga oid tarixiy buyumlarni ilmiy kontekstda to'plovchi va talqin etuvchi muassasa”* deb ta'riflaydi.

Rajkowska (2015) zamonaviy ta'lim tizimi bilan bog'liq holda ilmiy muzeylarni *“ilm-fan tarixini saqlash, uni interaktiv vositalar orqali targ'ib qilish va yosh avlodda ilmiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'limiy institut”* sifatida izohlaydi.

Yuqoridagi ta'riflar tahlili shuni ko'rsatadiki, ilmiy muzeylar - bu ilmiy va texnologik ishlanmalarni keng jamoatchilikka taqdim etish orqali insonlarning bilim darajasi va amaliy ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiluvchi muassasalardir. Ular sanoat, texnologiya va ilm-fan sohalarida erishilgan yutuqlarni aks ettiradi hamda ushbu sohalarining tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini yoritib beradi.

Ilmiy muzeylarning shakllanish jarayonlari ham o'ziga xos tarixiy bosqichlarga va xususiyatlarga ega. Jumladan, XVIII–XIX asrlar fan tarixida burilish davri bo'lib, muzeyshunoslik faoliyatining shakllanishiga bir necha omillar kuchli ta'sir ko'rsatdi. Yevropada ma'rifatchilik davri ta'sirida jamiyatda ong, tafakkur va ilmiy erkinlik yuksaldi. Natijada ilmiy obyektlarni tizimli to'plash va saqlash ehtiyoji ortdi. Bu jarayonda o'z navbatida akademiyalar va ilmiy jamiyatlar maydonga chiqdi. Qirollik jamiyati, Parij Fanlar Akademiyasi va Berlin Fanlar Akademiyasi kabi tuzilmalar muzey kolleksiyalarining asosiy shakllantiruvchilariga aylandi. XVIII–XIX asrlarda esa Yevropa davlatlari o'rtasida mustamlakachilik va ilmiy ekspeditsiyalar keskin kengaydi. Yangi hayvon turlari, o'simliklar, minerallar va etnografik namunalardan iborat ulkan kolleksiyalar paydo bo'ldi. Yuqoridagi berilgan manbalar asosida aytishimiz mumkinki, XVIII–XIX asr ilmiy muzeylarida quyidagi yo'nalishlar mavjud bo'lgan:

- tabiiy tarix (hayvonlar, o'simliklar, minerallar)
- anatomiya va tibbiyot namunalari
- texnika va ixtirolar
- etnografiya — insoniyat madaniyatlari namunalari

Ekspozitsiyalar ko'proq ilmiy tasniflashga asoslangan bo'lib, har bir obyektning kelib chiqishi, xususiyati, ilmiy qiymati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

XIX asrga kelib esa muzeylar iqtisodiy, ijtimoiy va pedagogik institut sifatida shakllanib, xalqning ilmiy savodxonligini oshirishga xizmat qila boshladi.

XVIII–XIX asrlardagi ilmiy muzeylarning asosiy jihatlari

Muzey nomi	Tashkil topgan yili	Asosiy yo'nalish	Kolleksiyalar manbai	Tarixiy ahamiyati
Kuntstkamera (Rossiya)	1714	Antropologiya, tabiiy tarix	Peter I kolleksiyalari, Yevropa olimlarining to'plamlari	Rossiyadagi birinchi ilmiy muzey, ta'limiy yo'nalishda katta ahamiyatga ega
Britaniya Muzeyi (Buyuk Britaniya)	1753	Tabiiy tarix, san'at, tarix	Xususiy kolleksiyalar, ekspeditsiyalar	Dunyodagi eng qadimiy davlat muzeylaridan, ilmiy tasniflash tizimiga asos solgan
Parij Tabiiy Tarix Milliy Muzeyi (Fransiya)	1793	Biologiya, geologiya, zoologiya	Inqilob davridagi davlatlashtirilgan to'plamlar	Ilmiy ekspeditsiyalarni tashkil qilgan yetakchi markaz
Berlin Tabiiy Tarix Muzeyi (Germaniya)	1810	Paleontologiya, zoologiya	Nemis ekspeditsiyalari, universitet kolleksiyalari	Yevropadagi eng yirik tabiiy tarix muzeylaridan biri

Muзей nomi	Tashkil topgan yili	Asosiy yo‘nalish	Kolleksiylar manbai	Tarixiy ahamiyati
Smitson instituti (AQSh)	1846	Tabiiy tarix, texnologiya	Amerika ekspeditsiyalari, davlat qo‘llovi	AQShdagi eng yirik ilmiy-ma’rifiy muassasa

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy muzeylarning shakllanish jarayoni turli omillar sabab bo‘lgan tarixiy-sotsial hodisadir. Bu davrda fan rivoji nafaqat muzeylarni tashkil etilishiga, balki ularning faoliyat tamoyillarining yaratilishiga ham olib keldi.

XVIII asr oxiriga kelib muzeylarning asosiy vazifasi faqat saqlash bo‘lmay, balki ilmiy-ma’rifiy xizmat ko‘rsatishga aylandi. Dunyo bo‘ylab olib borilgan ekspeditsiyalar muzey kolleksiyalarini boyitdi va ilmiy tahlilning yangi yo‘nalishlarini ochdi. Ba’zi davlatlar muzeylarni milliy nufuz timsoli sifatida rivojlantira boshladi.

Shu davrda shakllangan ekspozitsiya metodlari, saqlash qoidalari va ilmiy tasnif hozirgi muzeyshunoslikning poydevorini tashkil qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy muzeylarning shakllanishi tasodifiy jarayon emas, balki ilm-fan taraqqiyoti, ma’rifatchilik g‘oyalari va ilmiy jamoalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan. XVIII–XIX asrlar davomida yaratilgan muzeylar zamonaviy muzeylar uchun quyidagi asoslarni yaratdi:

1. Ilmiy tasniflash tizimining shakllanishi. Tasniflash (klassifikatsiya) – muzeylar uchun asosiy mezon bo‘lib, Linney, Buffon kabi olimlar ishlari muzeylar rivojiga katta hissa qo‘shdi.

2. Jamoatchilik uchun ochiqlik tamoyili. Ilk davrlarda kolleksiyalar faqat olimlar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, XIX asrga kelib muzeylar ommaga ochildi. Bu esa ilmiy savodxonlikning oshishiga sabab bo‘ldi.

3. Ilmiy ekspeditsiyalar va tadqiqotlarning kuchayishi. Fransiya, Angliya, Germaniya olimlarining ekspeditsiyalari natijasida ko‘plab tabiiy tarix obyektlari muzeylarga olib kelingan.

4. Muzeylarning ta’limiy vazifasi shakllandi. Ilmiy muzeylar darsliklar, ilmiy tajribalar va ko‘rgazmalar orqali yosh avlodni o‘qitish markaziga aylandi.

5. Ilmiy merosni saqlash g‘oyasining paydo bo‘lishi. Ilk muzeylar kolleksiyalarni saqlash, restavratsiya qilish va ilmiy hujjatlashtirishning tamoyillarini yaratdi.

Xulosa. XVIII–XIX asrlar ilmiy muzeylar uchun poydevor bo‘lib xizmat qilgan tarixiy davrlar hisoblanadi. Mazkur davrda muzeylarning asosiy ilmiy, ma’rifiy va ijtimoiy vazifalari shakllangan. Ilmiy jamiyatlar, ma’rifatchilik harakati va ekspeditsiyalar natijasida ilmiy muzeylar kuchli rivojlanish yo‘liga kirdi. Bugungi zamonaviy muzeylarning ko‘p funksiyali tizimi - ta’lim, ilmiy tadqiqot, saqlash, restavratsiya va interaktiv ko‘rgazmalar - aynan shu davrda vujudga kelgan tarixiy ildizlarga tayanadi.

Shunday qilib, ilmiy muzeylarning XVIII–XIX asrlardagi shakllanish jarayoni nafaqat tarixiy jarayon, balki hozirgi zamon ilm-fan va ta’limi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Шелегина О.Н. История и современные тенденции в развитии музейного мира Сибири (адаптационный подход). Автореф. док.ист.наук. Томск, 2012. -54 с.

2. Слепкова Н.В. Развитие зоологического музея академии наук как центра исследований по систематике (1883-1932 гг.). Автореф. дис....канд. биол. наук. Москва, 2006. -24 с.

3. Khudaykulovna, F. D. (2025). The role and functions of scientific and research museums around the world. *SHOKH LIBRARY*, 1(13).

4. Dirlabo Fazilova (2025). Fizika-texnika institutining tarixiy ilmiy kashfiyotlarini raqamli kontentga aylantirish va ularni ilmiy-ta’limiy resurslarga integratsiya qilish. *Современные проблемы интеллектуальных систем*, 1 (2), 5-8.

5. Khudaykulovna, F. D. (2025). History and Development of The Organizational Activities of The Physics and Technology Institute. *International Journal Of History And Political Sciences*, 5(05), 42-45.

6. Dirlabo Fazilova (2025). Ilmiy merosni saqlashda sun’iy intellektidan foydalanish: fizika-texnika instituti arxivlarini tizimlashtirish va raqamli tahlil qilish. *Современные проблемы интеллектуальных систем*, 1 (1), 126-129.